

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING O‘ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI

Matiyeva Yorqinoy Davronbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon tajribasi asosida hamda mamlakatdagi yoshlarga oid muammolarni hal qilish masalasida amalga oshirilgan siyosat va uning natijalari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, strategiya, dastur, qonun, konstitutsiya, grand, subsidiya, madaniyat, ta’lim, kasb-hunar.

Аннотация: В данной статье на основе мирового опыта и реализуемой политики в решении молодежных проблем в стране и ее результатов анализируется на основе научной литературы.

Ключевые слова: молодежь, стратегия, программа, закон, конституция, грант, субсидия, культура, образование, профессия.

Abstract: In this article, based on the world experience and the policy implemented in solving youth problems in the country and its results, it is analyzed based on scientific literature.

Key words: youth, strategy, program, law, constitution, grand, subsidy, culture, education, profession.

KIRISH/BВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION.

Kishilik jamiyatining zamonaviy bosqichi dunyo mamlakatlari siyosiy, ijtimoi-iqtisodiy va madaniy hayotining turli sohalarida globallashuv jarayoni jadallashganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi jamiyatning tarkibiy qismi hisoblangan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil tahlil etish hamda uni tarixiy materiallar asosida tadqiq qilishni ilmiy zaruriyatga aylantirmoqda.

Dunyo miqyosida jamiyat barqarorligini harakatlantiruvshi kuchi sifatidagi yoshlarning o‘rni, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi masalalari, turli mamlakatlarda yoshlar bo‘yisha olib borilayotgan umumiy siyosat bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Zamonaviy integratsion jarayonlar kechayotgan hozirgi davrda yoshlar muammolariga oid davlat siyosatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda yoshlar mamlakat aholisining uchdan bir qismini tashkil etadi va jamiyatimizni asosiy harakatlantiruvchi “lokomotivi” hisoblanadi. Shu bois ham so‘nggi yillarda respublikada yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish yuzasidan muhim amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD/

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /MATERIALS AND METHODS.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2021 yil 4 martdagi “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son, 2021 yilning 7 iyunida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 310-son “2022-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori, 2021 yil 13 iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-sonli farmonlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda asosini topmoqda.

MDH davlatlari orasida Rossiya olimlari yoshlar siyosatining huquqiy jihatlariga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar e‘lon qildi [7]. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar tomonidan yoshlar siyosati bo‘yicha dunyo davlatlari erishgan yutuqlar va xorijiy tajribalar qiyosiy o‘rganildi[2,3,4,5]. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning o‘rni masalasi tarixini bir qancha tadqiqotchi-olimlar o‘rgangan bo‘lib, ular o‘zlarining ilmiy tadqiqotlari natijalarini bir qancha adabiyotlar y yaratish orqali ilmiy muomalaga kiritgan. Jumladan, X.D.Xaknazarov [15], A.A.Insopov [9], Sh.S.Norov [11], tarixiylik nuqtai nazaridan yoshlarning demografik holati, ularning ma‘naviy, ma‘rifiy hamda millatlararo munosabatlar jarayonlaridagi ishtiroki masalalari D.B.Bobojonova [6], R.H.Murtazayeva [10] tadqiqotlarida ham ilmiy asoslangan.

METOD.

Ushbu mavzuni yoritishda hamda tadqiq qilishda tarix fanida ilmiy tadqiqot olib borishning muhim metodlaridan – adabiyotlarda berilgan ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, tarixiylik, xronologik – davriy ketma-ketlik, olingan ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilish hamda sintez qilish, obektivlik va reallik tamoyillaridan foydalanildi.

MUHOQAMA/OBSUZHDENIE/DISCUSSION.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati tarixi davriy-siyosiy jihatdan 2 ta bosqichda tahlil qilindi. Birinchi bosqich 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan boshlandi. O‘sha paytda mamlakat aholisining (20 million) deyarli 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etardi.

“Yoshlarga oid davlat siyosati”ning asoslari, maqsad va vazifalari qonunning 1-moddasida aniq ravishda bayon etilgan: “Yoshlarga oid siyosat – O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi – yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidorini jamiyat manfaatlari yo‘lida imkon boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy,

huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoitlar yaratish hamda ularni kafolatlanishidan iborat” [8 – Б. 222-223]. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qanchalik katta rolga ega va muhim bo‘lmasin, rivojlanishning barcha tomonlarini o‘z ichiga olmaganligi uchun yoshlar harakatining barcha o‘ziga xosliklarini qamrab ololmadi.

Muammoning murakkabligi shundaki, bunday dasturni shakllantirish bilan bir vaqtda, birinchidan, respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti umumiy konsepsiyasining asosiy prinsiplarini, ikkinchidan, davlat, jamiyat va yoshlar orasidagi ziddiyatlar holati va xarakterini, uchinchidan, kelajakda yoshlar bajaradigan va bajarishi lozim bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni, to‘rtinchidan, yoshlarning demokratiyaga asoslangan taraqqiyotining davlat-huquqiy mexanizmlarini yaratishni, beshinchidan, yoshlarning erklari va huquqlarini amalga oshirishlarining Konstitutsiya bilan kafolatlanishi, oltinchidan, yoshlarning xilma-xil talablarini qondirish uchun moddiy asoslar vujudga keltirilishini, mavjud iqtisodiy zamin va ijtimoiy infrastrukturani hisobga olish kerak bo‘ldi. Shu sababdan ushbu qonunni va sohaga doir boshqa hujjatlarni qayta ko‘rib chiqishni zamonning o‘zi dolzarb masalaga aylantirdi.

Mamlakatda samarali ishlaydigan yoshlar siyosatini ishlab chiqmasdan turib jamiyat va davlat hayotida keng islohotlarni amalga oshirish mushkul. Shu munosabat bilan mamlakatimizdagi yangilanishlar sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati shakllanishi tarixi va bugungi kunini tadqiq etish katta ilmiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda yoshlar obyektiv ravishda nafaqat tarbiya va ta‘lim obyekti, balki ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarning ongli subyektiga aylana bormoqda. Buning yorqin namunasini mamlakatimiz prezidentining: “Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar” [12] degan ta‘kidi orqali ham anglashimiz mumkin. Keyingi yillarda qonunchilikda sohaga doir bir qancha olg‘a siljishlarga sabab bo‘lgan qonun hujjatlari qabul qilindi. 2016-yilda O‘zbekiston Respublikasida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”[14] gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr “Ta‘lim to‘g‘risida”[1] gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari dolzarb ahamiyat kasb etdi.

NATIJALAR/PEZYULTATI/RESULTS.

Yuqoridagilardan kelib chiqib O‘zbekistonda jahon tajribasidan kelib chiqib yuritilgan siyosatning quyidagi natijalarini keltirish mumkin:

- yoshlar uchun ta‘lim va kasb-hunar o‘qitish: Yoshlarga sifatli ta‘lim berish, ularni kasb-hunar o‘qitish orqali ishga joylashish imkoniyatlarini oshirish maqsadida ko‘plab yangi ta‘lim muassasalari va dasturlari tashkil etildi;

- ish bilan ta‘minlash: Yoshlarga ishlash imkoniyatlarini yaratish maqsadida yirik loyihalar va startaplar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish

bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan;

- ijtimoiy himoya: Yoshlarga ijtimoiy himoya, jumladan, subsidiyalar va grantlar orqali yordam berish tizimi takomillashtirildi;

- madaniyat va san'at: Yoshlar uchun madaniy tadbirlar, festivallar va sport musobaqalari o'tkazilishi orqali ularning ijodkorlik va sport faoliyatlari rag'batlantirilmoqda;

- siyosiy faollik: Yoshlarga siyosiy va fuqarolik ishtirokini oshirish maqsadida turli tadbirlar va forumlar tashkil etilib, ularning ovozlari eshitilmoqda;

- yoshlar masalalari bo'yicha davlat organlari: Yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus davlat organlari va kengashlar tashkil etildi, bu esa yoshlarga oid siyosatni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadbirlar orqali O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishlari ko'zda tutilgan. Biroq, hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish uchun doimiy ravishda ish olib borilishi zarur.

XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION.

Jahonda yoshlar siyosatiga qaratilgan bir qator tajribalar shakllangan. Rivojlangan Yevropa mamlakatlari, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya singari rivojlangan davlatlarda yoshlar siyosatiga o'ziga xos yondoshiladi. Chunki har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti bo'lganidek, bir millat yoshlari boshqa xalqlar yoshlaridan farq qiladi. O'zbekistonda Asosiy Qonun – mamlakat Konstitutsiyasi bilan birga “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi alohida qonun qabul qilindi.

O'nlab qonunosti hujjatlari yoshlar muammolarini hal etish, ularni muayyan tuzilma atrofida jipslashtirish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish, faolligini oshirishga yo'naltirildi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining yetarli huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida ta'lim olgan va hunar egallagan yoshlar sonini oshirish; nisbatan past daromadga ega va yashash minimumidan past daromad bilan yashayotgan yoshlar miqdorini kamaytirish; yoshlar orasidagi huquqbuzarliklar miqdorining kamayishiga erishish; yoshlarning ishbilarmonlik, ijodiy, jismoniy faolligini oshirish; jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan yoshlar miqdorining oshishiga erishish va hokazolar ustuvor asosiy vazifalar sifatida belgilandi. O'zbekistonda yoshlarni muayan tashkilot orqali manfaatlarini himoya qilish, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va muammolarini hal etish zaruratga aylandi. Shundan kelib chiqib, Yoshlar ittifoqi tuzildi. Yoshlar ittifoqi 1991–1996 yillarda o'tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan yoshlarga doir davlat siyosatini muvofiqlashtirishda, yoshlarni qo'llabquvvatlashda muhim rol o'ynadi. Ammo vaqt o'tishi bilan mazkur tashkilot yoshlar qiziqishlarini ifodalay olmadi. Bunga

tashkilotdagi tashabbuskorlikning yetarli emasligi va mavjud imkoniyatlardan foydalana olmaslik kabilar sabab bo'ldi. 1996–2001 yillarda O'zbekiston yoshlarga doir davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan "Kamolot" jamg'armasi faoliyat yuritdi. Tashkilot yoshlarning bandligini ta'minlashga, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga, mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirishga urg'u berdi. Yoshlarning bandligini ta'minlash va biznes yuritish sohasida yirik loyihalarni amalga oshirdi. Ammo tashkilot yoshlar o'rtasida milliy g'oyani faol targ'ib qilish, ularni uyushtirish va yagona maqsad atrofida jipslashtirishda kamshiliklarga yo'l qo'ydi. Shundan so'ng 2001 yilda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati 2017 yilga qadar yoshlarni birlashtirgan eng yirik tashkilotga aylandi. Mazkur harakat yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lish kabi asosiy vazifani amalga oshirish uchun samarali loyihalarga qo'l urdi. Oliy o'quv yurti talabalari uchun alohida stipendiya joriy etdi, harbiy xizmatdan imtiyoz bilan qaytgan va oliy o'quv yurtiga qabul qilingan yoshlarni shartnoma pullarini to'lab berdi, biznesni tashkil etish va yuritish uchun yoshlarga kreditlar ajratilishiga ko'maklashdi.

Ammo "Kamolot" jamoat tashkiloti sifatida tuzilib, unga katta vazifalar yuklansa-da, ammo unga zarur huquqiy va amaliy vakolatlar, tegishli imkoniyat va imtiyozlar yetarlisha yaratib berilmadi. Bundan tashqari, mazkur tashkilotda kadrlar masalasi ham jiddiy muammolardan birini tashkil etdi. Respublikada o'tgan davr davomida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mutlaqo yangi tizim yaratildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI/СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ/ REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Алещенок С. В., Луков В. А. Мировой опыт разработки и осуществления государственной молодежной политики // Матеріали з проблем організації державної молодежної політики на республіканському та регіональному рівнях. – Київ, 1991.
3. Ильинский И. М. Молодежь и молодежная политика. Философия. История. Теория. – М.: Голос, 2001.
4. Канунников К. С. Концепции европейской государственной молодежной политики: тенденции и основные направления // Молодой ученый. – 2011. – Т. 2. № 12. – С. 19-22;
5. Луков В. А. Концептуализация молодежи в XXI веке: новые идеи и подходы // Социс. – 2012. – № 2. – С. 21-30.
6. Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент: Фан, 1995. – 94 б.
7. Гневашева В. А., Фальковская К. И. Эффективность молодёжной

политики: проблема определения критериев (результаты экспертного опроса) // Информационный гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». — 2011. — № 6 (ноябрь — декабрь)

8. Жўраев С.А. Ўзбекистон Республикасининг ўтиш даврида шаклланадиган давлат ёшлар сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари.: Политология фан. доктор. дисс. ... – Тошкент, 1994. – Б. 222-223.

9. Инсопов А.А. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини барпо этишда давлат ва нодавлат ташкилотлар ижтимоий шериклиги (1991-2016 йй.): Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2021. – 55 б.

10. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Тошкент: Университет, 2007. – 184 б.

11. Норов Ш.С. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг тарихий шаклланиши ва тажрибаси (Навоий вилояти мисолида): Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Навоий, 2022. – 54 б.

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқи // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662

13. Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 20 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги 429-ХП-сон Қонуни. // <https://lex.uz/docs/140894>

14. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги 406-сон Қонуни // <https://lex.uz/docs/3026246>

15. Хакназаров Х.Д. Ўзбекистон ёшларининг кундалик турмуш тарзи.: Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисс. ... – Тошкент, 2019. – 186 б.